

**Feruzabonu MANNONOVA,**  
*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o'qituvchisi*  
*E-mail: feruzamannonova@gmail.com*

*PhD, dotsent, R.Karimov taqrizi asosida*

## TASAVVUF ILMI VA MAHMUD SHABISTARIYNING SO'FIY ADABIYOTIDAGI O'RNI

Аннотация

Ushbu maqola tasavvuf adabiyoti va so'fiylik she'riyati haqida to'laqonli ma'lumot beradi. Shuningdek, maqolada tasavvuf ilming kelib chiqishi, falsafiy asoslari, diniy ildizlari va tarqalish ko'lamini ham bahs etadi. Tasavvuf ta'limotining ilk arab va ajam namoyondalari Hasan basriy, Robiya Adaviya, G'azzoliydan tortib, forsiy Jaloliddin Rumi Mahmur Shabistariyigacha g'oyaviy va badiiy o'xshashlik va farqli tomonlari bahs etilgan. Jumladan, tasavvufning ham adabiyot ham adabiyot ham teologiyaga bog'liq va bir biridan ozuqa oluvchi ilm ekanligi maqola atroflicha yoritilgan. Hususan, muallif Shayx Mahmud Shabistariyning asarlari va masnaviyalariga alohida to'xtab o'tib, "Saodatnoma" va "Gulshani Roz" asarlarini qisqacha adabiy tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** Tasavvuf ta'limoti, islom falsafasi, kamol ilmi, she'riyat, Gulshani Roz, masnaviy.

## СУФИЙСКАЯ НАУКА И МЕСТО МАХМУДА ШАБИСТАРИ В СУФИЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация

В этой статье представлена полная информация о суфийской литературе и суфийской поэзии. Также в статье рассматриваются происхождение, философские основы, религиозные корни и сфера применения науки суфизм. Обсуждаются идейно-художественные сходства и различия ранних арабских и начинающих представителей суфизма - от Хасана Басри, Рабии Адавии, Газали до перса Джалалуддина Руми Махмуда Шабистари. В частности, в статье подробно рассказывается о том, что суфизм, литература и литература зависят от теологии и учатся друг у друга. В частности, отдельно анализируются произведения и маснави автора шейха Махмуда Шабистари, а также кратко анализируются произведения «Саодатнаме» и «Гульшани Роз».

**Ключевые слова:** Учение суфизма, исламская философия, познание совершенства, поэзия, Гульшани Раз, Маснави.

## SUFISM AND THE PLACE OF MAHMUD SHABISTARI IN SUFI LITERATURE

Annotation

This article provides complete information about Sufi literature and Sufi poetry. Also, the article discusses the origin, philosophical foundations, religious roots and scope of the science of Sufism. The ideological and artistic similarities and differences of the early Arab and novice representatives of Sufism, from Hasan Basri, Rabiya Adaviya, Ghazali to the Persian Jalaluddin Rumi Mahmud Shabistari, are discussed. In particular, the article details the fact that Sufism, literature, and literature depend on theology and learn from each other. In particular, the works and masnavis of the author Sheikh Mahmud Shabistari are analyzed separately, and the works of "Saodatnama" and "Gulshani Roz" are briefly analyzed.

**Key words:** Sufism teaching, Islamic philosophy, knowledge of perfection, poetry, Gulshani Raz, Masnavi.

**Kirish.** Tarixdan malumki, islom dinining yuqori tamaddun darajasiga ega bo'lgan mintaqalarga yoyilishi bu yerlarda ustuvor bo'lgan mistik-falsafiy qarashlarning islom mafkurasi bilan to'qnashuvini keltirib chiqargan. Bunday tashqi ta'sir dastlab, umaviylar hukmron bo'lgan Suriya hududida yashovchi mistik xristianlar tomonidan ko'rsatildi. Abbosiy davrida poytaxtning Damashqdan Bag'dodga ko'chirilishi va Ma'mun akademiyasining shakllanishi tashqi ta'sirni yanada oshirdi. Buning ustiga, bu yerda Hind, Eron va Markaziy Osiyo xalqlarining ko'p mingyillik diniy-mistik qarashlariga duch kelindi. Arab bo'lmagan (ajam) xalqlarning islomni qabul qilishi va natijada bu mintaqalarda mavjud mistik tasavvurlarning islomlashuvi ham islom dunyosida yangicha tafakkur, yangicha qarashlarni paydo qildi. [2]

Ularning yoyilishi islomiy falsafaning ilk ko'rinishi bo'lgan Kalom ilmining shakllanishi bilan bog'liq. Kalom ilmi — ilohiyotga taalluqli ilm. Unda faylasuflarga xos aqliy-mantiqiy tafakkur va tajriba usuli, shuningdek, shariat asoslanadigan dalil-hujjatlar, ya'ni Qur'oni karim va hadisi shariflar uyg'un holda keladi. Har bir mulohaza din asoslari ustiga quriladi. Kalom bahs yuritish vositasida olib boriladi. Kalom ilmi sharofati bilan jamiyatda turli qarashlar va bidiatlarga qarshi kurash keng rivojlangan boshladi [8]. Biroq Moturudiy va G'azzoliylar davriga kelib Kalom ilmi qamrovi o'z ornini tasavvufga bera boshladi. Tasavvuf uzini ham falsafiy ham islomiy g'oyalarni mujassamlashtirganligi va universalligi barcha mafkuraviy nizolarga chek qo'ydi. Demak, shundan ma'lumki, tasavvuf ikki yo'nalishda falsafiy va diniy ya'ni kalom ilmi yo'nalishi rivojlandi. Tasavvuf eng keng tarqalgan hududlar Markaziy Osiya, Eron va Hindiston hisoblanadi. [3]

Ilk sufiylar, asosan, din olimlari va mulkdorlar tabaqasi vakillari orasidan chiqqan. Ibrohim Adham qissasi bunga dalildir. Sufiylikning poydevorini qurgan mashhur zohidlarning bir nechalari tarixiy kitoblarda qayd etilgan. Jumladan, VII-VIII asrlarda yashagan Ja'far Sadiq (vaf.767), Abu Hoshim as-Sufiy (vaf.767), Shaqiq Balxiy (vaf.770), Sufyon Savriy (vaf.777), Abdulloh ibn Muborak (797), Fu zayl ibn Ayoq (vaf.802) kabi din olimlarini keltirish mumkin. [2]

**Nazariy qism.** Tasavvuf dunyodagi turli xalqlarning ijtimoiy, falsafiy, badiiy tafakkuridan keng o'rin egallagan va keng tarmoqli murakkab talimotdir. Bu ta'limotni rivojiga va mustahkan o'rin egallashda Bibi Robiya, Abu Hamid G'azzoliy, Ibn Arabiy, Fariddun Attor, Jaloliddin Rumi, Abu Bakir Shibliy, Mansur Halloj, Hoja Ahmad Yassaviy, Ho'ja Naqshbandiy va Mahmud Shabistariy kabi mutaffakir va shoirlarning xizmati kattadir. Hususan, Sh. Sirojiddinovning fikriga ko'ra, ilk tasavvuf namoyondasi deb Hasan Basriy deb tilgan olingan va ilk zohida esa Robiya Adaviyadir. Biroq Basriy va Adaviyalarni fikrlarni bir biridan ancha farqli bolib, Basriy shariat yordamida komillikka erishish va poklanish sufiylikning ilk sharti deb hisoblasa, Robiya Adaviya Oллоhga bo'lgan muhabbat baridan ustunligini ta'kidlaydi va bu barcha ilmlardan ustunligi barcha ezgu amallar Allohga muhabbat sababli amalga oshirilish, bunda dozaxdan qo'rquv yohud jannatdan mosuvolik qorquvi bundan ustun bo'lmaslik zarurligi go'yalarini o'z she'rlari va qo'shiqlarida namoyon etadi. Tasavvuf ilmi dinshunoslik, falsafa va psixologiya kabi sohalar bilan bir qatorda ilk navbatda adabiyot bilan bog'liq va adabiyotning tasavvufda o'zni mislsiz bo'lgan. Tasavvuf adabiyoti turli tillardagi tasavvuf g'oyalarni ifodalovchi va targ'ib qiluvchi asarlardan iborat. Tasavvuf o'rta asr adabiyotiga, ayniqsa arab, fors, turkiy va urdu tillarida yozilgan she'riyatga muhim ta'sir ko'rsatdi. So'fiylik ta'limotlari va tashkilotlari

adabiyotga o'sha davr saroy she'riyatidan ko'ra ko'proq erkinlik bergan. So'fiylar o'z adabiyotlarida xalq og'zaki ijodi unsurlarini o'zlashtirganlar.[6]

Nizomiy, Navoiy, Hofiz, Sam'oni, Jomiy ijodi ozmi-ko'pmi so'fiylik bilan bog'liq edi. Sanoiy (vafoti 1140-yil), Attor (1119-yilda tug'ilgan), Rumi (1273-yilda vafot etgan) kabi so'fiy shoirlarning baytida ilohiy adolatga urg'u berib, zulmga qarshi norozilik bildirilgan, yovuz hukmdorlar, diniy aqidaparastlik, ochko'zlik va ikkiyuzlamachilik tanqid qilingan. pravoslav musulmon ruhoniylarining. Bu yozuvchilar qo'llagan she'riy shakllar xalq qo'shig'i, masal va ertakga o'xshash edi.

Tasavvuf and Sufiy she'riyati haqida rus olimi I. M. Petrushevskiy va Bertels ilmiy izlanishlar olib berilgan. Shuningdek. Petrushevskiyning fikriga ko'ra, "Ingliz sharqshunosi R. Nikolson XI asrgacha bo'lgan davrgacha tasavvuf ya ni so'fizm tushunchasiga yetmish sakkiz ma'nodagi talqini aniqlangan" [4].

Islom dunyosida birinchi so'fiylar «Basra» va «Kufa» shaharlarida topildilar. Bu shaharlarda musulmonlar bilan birgalikda yahudiylar, masihiylar va majusiylar (olovga sig'inuvchilar) ham xilma-xil aqidalar bilan yashardilar. Albatta zamon o'tishi bilan turli fikrlar va nazariyalar bir-biriga ta'sir qilmasdan qolmasdi. [1].

Tasavvuf Sharq ma'naviyati tarixida muhim o'rin egallab kelgan tadrijiy taraqqiyotga ega bir ta'limot bo'lib, islom olamida VIII asrning o'rtalarida paydo bo'lgan. Dastlab u zohidlik harakati ko'rinishida kurtak yoyadi. Gap shundaki, hazrati Muhammad Mustafo sallallohu alayhi vasallam vafotlaridan keyin musulmonlar jamoasi ichida bo'linish yuz beradi, ayniqsa, xalifa Usmon razyallohu anhu zamonlarida boylikka ruju qo'yish, qimmatbaho tuhfa bilan qarindosh-urug'lar, yaqin do'st-birodarlarni siylash rasm bo'ladi. Ummaviya xalifaligi davriga kelib esa, saroy hashamlari, dabdabali bezaklar, oltin-kumushga berilish, xazina to'plash avj oldi. Ya'ni diniy mashg'ulotlar, Xudo yo'lidagi toat-ibodat o'rini dunyoviy ishlar, dunyo moliga muhabbat egallay boshladi. Bu hol diniy amrlarni ado etishni har qanday dunyoviy ishlar, boyliklardan ustun qo'ygan e'tiqodli kishilarning noroziligiga sabab bo'ldi. Ular orasida hadis to'plovchi muhaddislar, ilgari qashshoq bo'lib, uy-joy, mol-mulkka e'tibor qilmagan sahobalar ham bor edi. Bularning bir qismi dini himoya qilib, ochiq kurashga o'tlangan bo'lsalar, ikkinchi qismi esa, qanoat va zuhdni («zuhd» so'zidan «zohid» so'zi kelib chiqqan) asosiy maqsad qilib olib, saroy ahli va sarvaddorlar, boylar axloqiga qarshi norozilik belgisi sifatida tarkidunyochilik g'oyasini targ'ib etib, ijtimoiy faoliyatdan butunlay chetlashganlar, surunkali toat-ibodat bilan shug'ullanganlar. Kufa, Bag'dod, Basra shaharlarida tarkidunyo qilgan zohidlar ko'p edi, aytilish kerakki, ularning obro'-e'tibori ham xalq orasida katta bo'lgan. Chunonchi, Uvays Qaraniy (VII asr), Hasan Basriy (642–728) kabi yirik so'fiylar aslida zohid kishilar edilar, shuning uchun bu zotlarning nomi shayxlar va so'fiylar haqidagi tazkiralarda zohid sifatida tilga olinadi, ba'zi mualliflar esa ularni so'fiylar qatoriga qo'shmaganlar ham [3].

**Metodologiya.** Ibn Arabiyaning ta'kidlashicha, sufiylik botinam ham, zohiran ham ilohiy ahloqdir. Shuning uchun, bu ta'limot nafs "manzil"larining sirlariga alohida e'tibor bilan qarashga o'rgatadi. Tasavvuf faqat insoniy, go'zal va hur hayotdagi tiriklikning yoqlaydi. Shuning uchun uni ahloqning husni deb ta'riflashgan. Tasavvuf ahli – sahoat, futuvvat, qanoat, diyonat, sayohat va ishorat ahli. Bular inson hujudidagi barcha noqislik, jamiki yomonliklar bilan kurashuvchidir. "Borg'il sen ko'ngil uyingni orasta qil. Mashuqaning kirib kelishi uchun joy tuzat, qachon sen chiqsang, ushanda u kiradi. Va u go'zalligini senga sensiz zohir qiladi" – deydi Mahmud Shabistariy. Bu g'oyaviy davattasavvuf bilan bog'langan barcha shoirlarning she'rlarini ichdan nurlantirib turadi. [3]

Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston"ida yozilishicha, Shayx Abusaid "Tasavvuf nima?" deb so'raganlarida "Boshingda ne bo'lsa chiqarib tashlash, qo'lingdan neki bor qo'ldan chiqazish, boshqalaradan senga nima ozor yetsa ranjimaslik" degan ekan. [5]

Bugungi kunda ko'hna tariximiz, milliy qadriyatlarimiz, madaniy merosimizga e'tibor kuchayib, ulug' ajdodlarimiz hayoti va ijodini o'rganish hamda ulardan ta'lim jarayonida foydalanish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Ana shunday buyuklardan biri Shayx Sa'diddin Mahmud bin Aminiddin Abdulkarim bin Yahyo Shabustariy Sharq tasavvuf ta'limotining mashhur ulamolaridan bo'lib, uning yozib qoldirgan ilmiy-adabiy merosi katta ta'limtarbiyaviy ahamiyatga egaligi bilan qadrlanadi. Shoir va faylasuf, islom ta'limotining yetuk namoyandasi Mahmud Shabustariy taxminan 1289-yilda Tabriz yaqinidagi Shabustar qishlog'ida tug'ilgan, shimoli-g'arbdagi kichik Shabustar qishlog'i tug'ilgan. Bu qishloq Hozirgi Eronning sharqiy Ozarbayjonga chegaradosh qismida joylashgan Urumiya ko'lidan bir necha mil ichkarida joylashgan Tabriz shaxrida. Uning hayoti, xotini, bolalari yoki oila ajdodlari haqida deyarli hech narsa ma'lum emas. O'zining e'tirofiga ko'ra, u umrining ko'p yillarini bilim olish maqsadida Misr, Turkiya, Arabiston va boshqa mamlakatlarda sayohat qilgan. Biroq, u Tabrizning boshqa shoir va mutasavviflarga tez-tez murojaat qilgan va o'zining "Saodatnoma"sida (Saodat kitobida) ko'rinib turibdiki, umrining ko'p qismi Mo'g'ul Forsidagi fors adabiy madaniyati va tasavvufining asosiy markazlaridan biri bo'lgan Tabrizda o'tgan [6]. U Fors tilida ijod qilgan va o'z qarashlari bilan yaqin va o'rta Sharq hududlarida ijtimoiy-ma'rifiy fikrlarning rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Mahmud Shabustariyning uch ming baytni tashkil etuvchi safarlari bayoni va muloqotlari tasviridan iborat "Saodatnoma", "Risolai shohid" ("Shohid haqida risola"), "Mir'ot ulmahaqiqiyun" ("Oriflar ko'zguisi"), "Minhoj ul-obidin" ("Taqvodorlar yo'li"), "Gulshani roz" (Sirlar gulshani) nomli asarlari mavjud [8]. Shabustariy o'z davrining mashhur ilohiyot vakili va so'fiylik ta'limotining hurmat qozongan shayxi sifatida, o'zining xonaqohida yetarli darajada muridlari, tinglovchilariga ega bo'lgan.

Mashhur yozuvchi va sharqshunos Sodiq Xidoyat «Riyoza-orifin» kitobida Paxlavon Maxmud «Kanzul xakoyik»ni taxminan 1319—1320 yillar orasida yozganligini kayd etgan. Olim masnaviyning Shabustariyga 143 www.kitob.uz saytida elektron kitoblar, audio ertaklar, darsliklar mavjud nisbat berilishiga tuxtalib, «bu masnaviy, albatga Paxlavon Maxmud asaridir. Zeroki «Gulshani roz» «Kanzul xakoyik»dan un yetti yil keyin yezilgan» deb maxsus ta'kidlagan [4].

O'rta asr Sharq xalqlari ma'naviy merosi bo'lmish Mahmud Shabustariy Ibn al-Arabiyaning izdoshi bo'lib, uning barcha she'riy va nasriy asarlarida mislsiz iste'dod va metafizik penetratsiya murakkab dilemmalarni sintez qilishda aforistik mahorat bilan birlashtirilgan Islom teologik va teosofik tafakkuri bor. Shabistariy o'z davrining mashhur ilohiyot vakili va so'fiylik ta'limotining hurmat qozongan shayxi bo'lib, uning "Gulshani roz" masnaviysi musulmon madaniyatining qimmatli xazinasi sanaladi. Asar kichik hajmli, mazmunan keng. Unda islom dini va XIII-XIV asrga tegishli so'fiylik ta'limoti qoidalari hamda asoslari belgilangan. Asar didaktik xarakterga ega bo'lib, o'git, pand-nasihatlardan, ya'ni Amir Husayniyning savollariga Mahmud Shabustariyning javobi shaklida qurilgan [1].

U o'rta asrlardagi fors so'fiylari bilan tengsizdir mahsulining qisqaligi va mazmunining chuqurligi bilan shoir. Shabistariy Sirlar bog'ida ekan. Ibn al-Arabi ta'limotini hech qanday cheksiz qabul qiladi, "Saodatnoma"da esa u ehtiyotkorroqdir. va asosan al-G'azzoliyga (vaf. 1111 yil) tayanib, unga nisbatan muayyan e'tirozlarni bildiradi. Uning diniy orientatsiya (shuningdek, uning zamondoshi Kubroviy ustozlari - Nuriddinning dunyoqarashi) Isfarayniy, Semnoniy va Mag'ribiy (vaf. 810/1408) - Kubroviy so'fiylik ordeni aks ettirilgan. tegishli bo'lgandir. U falsafiy an'anaga sodiq qolgan, unga so'fiylar,

ilohiyotchilar va faylasuflar ham; bilimga bir yoki bir kishi tomonidan erishish mumkinligini ta'kidlaydigan an'ana uch vositaning birikmasi: (1) vahiy (vahiy), (2) aql (aql) va (3) kashf (ochish), teologlar, faylasuflar va so'fiylar tomonidan qo'llanilgan usullarga mos keladi. In XIV asrdan XX asrgacha bo'lgan keyingi fors tasavvuf faylasuflarining asarlari; masalan, Sa'iidin Turkah (Ibn Turka) Isfahoniy (vafoti 830/1427), Mulla Sadra (vafoti 1050/1640), Abdurazzoq Lohijiy (vaf. 1072 / 1661—2), Mulla Abdulloh Zunuziy (vaf. 1257 / 1841), Hodiy Sabzvoriy. (vaf. 1295/1878), Shabistariyning "Gulshan-i raz" misralari tez-tez zikr qilingan. tushunchalar va ontologiya, etika yoki gnoseologiyaning nozik nuqtalari haqidagi fikrlarini qamrab oladi. Shuningdek, Shabistariyning boshqa yagona so'fiy she'riy dostoni "Saodatnoma" ("Saodat kitobi") bo'lib, u asosan asardir. kalom ilmiga tegishli bo'lgan mavzularni ataylab Islom falsafiy teologiyasi she'riylashtirishga bag'ishlangan. U "Haqq al-yaqin" nomli yagona teosofik risola yaratdi. sakkiz bobga bo'lingan (abvob, "darvozalar", jannatning sakkiz eshigiga mos keladi), har biri uzunligi ikki dan besh sahifagacha. Bu "Gates" o'z navbatida baytlarga bo'linadi matn sarlavhali alohida lemmasi bo'lgan paragraflar. Odatda ko'rsatilgan lemmatalarning ba'zilari o'z ichiga oladi Haqiqat (haqiqat) - Tasvir (tamthil) - Nota Bene (tabura) - Xulosa (far') - Xulosa (natija) - Nozik bir sir (sirr-i nazuk) -Tabiiy oqibat (lazima) - Foydali taklif (foyida) - Noziklik (daqiqqa). Shunday qilib, kitob kichik qismlarga bo'lingan, ularning ba'zilari faqat qisqa falsafiy fikrni yoki metafizik haqiqatni ochib beruvchi o'lchamdagi paragraf, keyin Qur'ondan iqtibos keltiriladi. "Saodatnoma" ham, "Haqq al-yaqin" ham Yevropa tiliga tarjima qilinmagan til [6].

Sh. Sirojiddinovning "Kalom ilmi" kitobida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan: "Alloh tajalliysi cheksiz imkonga ega, shuning uchun bu olam turfa xilligi ham cheksiz. Shabistariy 1311-yilda "Gulzori asror degan doston yozib, 18 ta savolga javob berganda, shu masalalarni she'riy bayon qilgan. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy asarlarida ham bu haqida fikr yuritilgan. Ibn al-Arabiy olamning ilohiy vujudga o'xshashligini tan olmaydiganlarni jiddiy tanqid qiladi". Ma'lumotlar bir muncha farqli bolishiga qaramasdan, asos birxilligi va mazmun o'zgarishsizligi, farqlanish faqat shaklda ekanligi ko'rishimiz mumkin [8].

Ikkita tasavvufiy she'riyat kitobi va bitta teologik risola muallifi Shabistariy dekabr oyida yaratgan 1000 misrali so'fiylik she'ri "Gulshan-i raz" (Sirlar bog'i) bilan shuhrat qozongan. Asar 1317 qofiyali baytlarda baytlardan iborat. Bu she'riy asar tasavvuf metafizikasining turli nozikliklari haqida so'fiyga berilgan o'n ettita savolga javob shaklida yozilgan.

O'z davrining yana bir buyuk so'fiysi Rukniddin Husayniy Xaraviy (vaf. 718 h.) 1318 yil.) Juda ramziy tilda tuzilgan va bir necha asrlar leksikasi asosida yaratilgan Fors ramziy she'riyat, "Sirlar bog'i" turli mavzularda so'fiylarning dikta sini bayon qiladi. Ular: "Fikr" (fikr), "Ruh" (nafs), "Ilm" (ma'rifat), ko'pligi va birligi kabilar. Borliq sohalari, borliqning ierarxik darajalari, ruhiy sayohat (sayr) va metodik So'fiy yo'lidagi taraqqiyot (suluk), yaqinlik (qurb) va Xudodan uzoqlik (bu'd) va evolyutsiya ruhning. Bu butun fors so'fiy adabiyotida eng ko'p sharhlangan asarlardan biri edi; XVI asr o'rtalariga kelib unga turli mualliflar tomonidan o'ttizga yaqin sharhlar yozilgan mashhur va noaniq fors mutasavviflari soni, ulardan eng muhimi mafotihdir. al-i'joz fi sharh-i Gulshan-i raz Muhammad Lahijiy (vafoti 1507 yil). She'rni birinchi marta G'arb sharqshunoslari e'tiboriga fransuz sayohatchilari Sharden olib kelgan va XVII asrda Forsga tashrif buyurgan va she'rning obro'si haqida xabar bergan Bernier u erda "somme théologique" sifatida doiralarni o'rgandi. Keyinchalik she'rning qisqacha qismi tarjima qilingan 1821 yilda Toluk o'zining "Sufismus" asarida lotincha, keyinroq 1825 yilda nemis tiliga tarjimasi bilan boshlanadi. "Bluthensammlung aus der Morgenlandischen Mystik" asarida she'rning uchdan bir qismi. Gulshan-i Roz Forscha matn nashr etilgandan so'ng, G'arbiy islomshunoslikning asosiy oqimiga kirdi. 1838 yil J. von Hammer-Purgstall tomonidan nemis she'riy tarjimasi bilan. 1880 yilda ushbu matn qayta ko'rib chiqilgan va Hammer tomonidan qoldirilgan bir nechta qo'lyozmalar bilan to'plangan va Angliyada qayta nashr etilgan. Ingliz tiliga tarjimasi E.H. Uinfild. O'shandan beri u bir necha marta ingliz tiliga tarjima qilingan, Garchi bu tarjimalarning hech biri Uinfildning ijrosiga jiddiy hech narsa qo'shmagan [3].

**Xulosa.** Tasavvuf ya'ni so'fiylik, islom madaniyatining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lgan talimotdir, uni ifodalash va xalqqa yetkazishda adabiyot o'rni beqiyos bo'lib, o'sha davr so'fiylarining hammasi adabiyotdan va sh'riyatdan yiroq bo'lmagan ijodkorlar bo'lishgan. Ular ilohiy ishq, shukronalik va komillikka erishish g'oyalari o'z asarlarida go'zal tarzda ifoda etishgan va bu adabiyot namunalari jahon adabiyoti miqyosida keng ko'lamda haligacha o'rganilib kelinmoqda. Shunday sufiiy shoirlardan biri Mahmud Shabustariy bo'lib, uning Gulshani Roz- Sirlar Bog' masnaviyi o'zining xalqchil mazmunda, ixcham shaklda yozilganligi bilan ajralib turadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Abdulhakim Sha'riy Jo'zjoniy. Tasavvuf va Inson. Adolat. 2001.
2. Bahman Solati. O'rta Asr Fors Adabiyotining Qisqa Talqini. 2017.
3. Hamidullo Boltaboyev. Islom Tasavvufi Manbalari. O'qituvchi. 2005
4. Hamidjon Homidiy. Tasavvuf allomalari. Sharq. 2004.
5. Ibrohim Haqqul. Tasavvuf va She'riyat. G'afur G'ulom. 1991.
6. Leonard Lewisohn. The Biographical Encyclopedia of Islamic Philosophy, 15 July 2006, pp. 260-262.
7. Najmiddin Komilov. Tasavvuf. Movaraunnahr – O'zbekiston. 2009.
8. Sirojiddinov Sh. Islom falsafasiga kirish: Kalom Ilmi. Iqtisod- Moliya. 2008